Ko'pgina tajribalardan ma'lum bo'lishicha PVX ning beqarorligi polimer makromolekulasi tarkibida kislorod bo'lgan, ya'ni $(\text{C}(\text{O}) - \text{CH} = \text{CH} - \text{CHCl})$ tipdagi karbonil allil gruppasiga (KAG) bog'likligi isbotlandi.





Bu erda:

R c – normal tuzilishdagi PVX makromolekulasidan **HCI** ni ajralib chiqish tezligi. [19-20]

R p – xlorallili gruppasi bo‘lgan PVX makromolekulasidan **HCI** ni ajralib chiqish tezligi.


R ka r – karbonil allil gruppasi bo‘lgan PVX makromolekulasidan **HCI** ni ajralib chiqish tezligi.

Reaksiya tezligi quyidagicha bo‘ladi: **R ka r > R p < R s**

SHunday qilib, PVX xam beqarorligi asosan makromolekudagi karbonil allil gruppalariga bog‘liq emas.

Demak, PVX ning beqarorligi sabablari molekuladan HCI ning ajralib chiqishi natijasida bog‘liqlik qo‘shbog‘larining xosil bo‘lishi, aktiv markazlarning polimerlarga uzatilishi natijasida polimerlarda shoxchalarni xosil bo‘lishi, shuningdek xlor atomining uchlamchi uglerod bilan bog‘ xosil qilishi, oksidlanish natijasida gidropereks, gidroksil, karbonil gruppalarining xosil bo‘lishidir.

II.11. Polmerlarning HCI ishtirokida parchalanishi: Xar xil energetik ta’sirlar natijasida PVX makromolekulasi xar xil ta’sirga uchrashi mumkin. 80-130⁰ S da asosiy zanjir uziladi. PVX dan **HCI** ajraladi.




Demak, PVX dan **HCI** ajralib chiqish xlor allil gruppasini

($\text{CH}_2 = \text{CH} - \text{CH} -$) va bog‘liq qo‘shbog‘lar ($-\text{SN}=\text{SN}-\text{SN}=\text{SN}-\text{SN}_2 -$) xosil

SI

bo‘lishiga olib keladi. Bu polimerni rangini o‘zgartiradi. Uning fizik-mexanik dielektrik va boshqa xossalari yomonlashtiradi. Yana bir PVX uchun xarakterli bo‘lgan reaksiya bu tikilish reaksiyasidir. Tikilish reaksiyasi natijasida chiziqsimon makromolekula tarmoqlangan reaksiya oxirida 3 fazali bo‘lib qoladi. Bu PVX ning eruvchanligini kamaytirib, uni qayta ishlashni qiyinlashtiradi. Plastifikatsiyalangan PVX da tikilish plastifikator bilan polimerning qo‘shilishini kamaytiradi. Natijada plastifikator polimer sirtiga migratsiyalanib chiqadi va polimerning xossalari yomonlashadi.[21]

Demak, PVX destruksiyasida asosiy rolni vodorod xloridning chiqishi va tikilishi o‘ynar ekan. 330^0S gacha bo‘lgan temperaturada asosan **HCl** ajralib chiqadi. Buning natijasida qo‘shbog‘lar xosil bo‘ladi. 330^0S gacha asosiy uchuvchan modda (96-99,5 %) **HCl** bo‘ladi. 1-3 % benzol va boshqa ba’zi moddalar bo‘lishi mumkin. Mana shu 1-3 % organik moddalarni 50% ga yaqinini benzol tashkil qiladi. Benzolning xosil bo‘lishi zanjir oxirida bog‘larning xosil bo‘lishiga sabab bo‘ladi.




HCl ajralib chiqish boshlangandan keyin ma’lum vaqt o‘tgandan boshlab, tikilish reaksiyasi xam boshlanadi, chunki ma’lum miqdorda qo‘shbog‘lar xosil bo‘lgandan keyin qo‘shbog‘lar xisobiga tikilish boshlanadi.

Endi agar temperaturani to‘xtovsiz oshirib yuborsak 269-230 S da **HCl** ajralib chiqishi tezligi tugaydi. YA’ni PVX ning xlor qolmagan maxsulotining destruksiyasi boshlanadi va zanjirli parchalanish natijasida chiziqli sikilli tuzilishdagi quyi molekulyar aralashmasi xosil bo‘ladi. Bu aralashma tarkibida 170 dan ortiq uglerodlar topilgan.

Benzol ancha past temperaturadayoq xosil bo'la boshlaydi. YUqori temperaturada xosil bo'lgan uglevodorodlarning asosiy qismini benzol tashkil qiladi. Benzoldan tashqari spiral, naftalin, ortaksilol, indin, atrotsep, xar xil xlor benzollar xosil bo'lishi aniqlangan. 400-500⁰S gacha alifatik uglevodorodlarga nisbatan aromatik uglevodorodlar ko'proq xosil bo'ladi. 500⁰S dan yuqori temperaturada esa teskari alifatik uglevodorodlar xosil bo'lishi ko'proq kuzatiladi. SHunday qilib yuqori temperaturada PVX ning destruksiyasi yanada qiyinlashadi. [20-21]


Polimerning ximiyaviy, fizik-ximiyaviy xossalarini yomonlashishi esa ancha past temperaturadayoq destruksiya boshlanishi bilan boshlanadi. SHuning uchun xam PVX ga issiqlikning ta'siri 330⁰S gacha o'rganish maqsadga muvofiqdir. 330⁰S dan yuqori temperaturada destruksiyaga PVX emas xlori yo'q polimer uchraydi.

Demak, PVX ni **HCl** ta'sirida parchalanishda makromolekula tarkibi butunlay o'zgarib, qora rangli birikma xosil bo'ladi.



Vodorod xlorid PVX dan **HCl** ni ajralib chiqish va makromolekularni tikilishini tezlatadi.(qo'shbog' xosil bo'lishi) **HCl** ni ajralib chiqish tezligi porsial bosim qancha ko'p bo'lsa shuncha yuqori bo'ladi.

Buni 2,2 grafikdan ko‘rishimiz mumkin.




Grafik 2.2 PVX ning avtokatalitik degidroxlorlanishi.

2.2 grafikdan ko‘rinib turibdiki bosim oritishi bilan **HCl** ni ajralishi xam tezlashyapti. Demak, PVX dan ajralib chiqqan **HCl** avtokatalizator rolini o‘ynab, **HCl** ni ajralib chiqish tezligi juda xam oshirib yuboradi. SHuning uchun xam PVX ni qayta ishlayotgan vaqtida albatta sobilizator **HCl** akseptori qo‘shiladi.

II.12. Polimerlarning parchalanishiga kislotalarning ta’siri:

Polivinilxlorid odatdagi temperatura ta’sirida ximiyaviy agentlarga chidamli, u 60 S gacha xlorid va chumoli kislotaning xar qanday konsentratsiyasiga xam, sulfat kislotaning 90 % gacha, sirka kislotaning 80 % gacha, nitrat kislotaning 50 % gacha, ishqorlarning xar qanday konsentratsiyasiga xamma metallarning tuzlariga va sanoatda chiqadigan gazlarning (**O₂. NO₂. Cl₂. SO₂.**) ta’siriga chidamlidir. Benzin, kerosin, yog‘lar, bir va ko‘p atomli spirtlar ta’sirida o‘zgarmaydi. Bundan tashqari PVX amalda yonmaydi, lekin 80-100⁰S da va undan yuqori tepmeraturada ximiyaviy agentlar PVX ni parchalanishini tezlashtiradi.

Kislotalar **HCl** ga o'xshab PVX destruksiyasini tezlashtiradi. Organik kislotalar xam PVX ni parchalanishini tezlashtiradi. Bir xil miqdor qo'shilganda bir negizli kislotaga qaraganda ikki negizli kislotalar PVX ni tezroq destruksiyaga uchratadi. Murakkab efirlar, plastifikatorlar kislorodsiz muxitda PVX ni destruksiyasini kamaytiradi. Kislorodli muxitda esa tezlashtiradi. Buni (2.3) grafikdan ko'rishimiz mumkin.



2,3 rasm. Plastifikatorli PVX dan kislorodli va kislorodli muxitda 175⁰S da **HCl** ni ajralib chiqish vaqtiga bog'liqdir.

Spirt va fenollar kislorodsiz muxitda PVX destruksiyasini tezlashtiradi. Lekin kislorodli muxitda antisidat rolini o'ynab PVX ni parchalanishini kamaytiradi.

Kislorodning katalitik xarakterlarini PVX ni parchalanishida plastifikator ishtirokida kuzatishimiz mumkin. Lekin faqat shugina emas, balki plastifikatordagi nordon aralashmalarda xim ko'rishimiz mumkin. Xamda kislotalarni qo'yib turish xam uni aktivlashtirishiga olib keladi. (masalan: sulfat kislota va sebatin kislota).

Sulfat kislota va xlorosulfat kislota PVX ni sulfatlaydi, shu bilan birgalikda qo'shimcha maxsulot sifatida **CO**, **HCl**, **SO** lar ajralib chiqadi va buning natijasida tuk rangdagi polimer maxsuloti xosil o'ladi.

PVX ni qayta ishlash vaqtida qo'shilgan nitrat kislota yoki sulfat nitrat kislota aralashmasi (10 %) makromolekulasini o'ziga yordam berdi. Nitrat kislota fosfor ангидриди ishtirokida PVX ga nitrat agent sifatida ta'sir etadi.[22]

Organik kislotalar, ангидридlar va murakkab efirlar dienofanil xossalariga ega (malien kislota, fumar kislota, ularning efirlari va molen ангидриди), bular **HCl** ni ajralib chiqish tezligini susaytiradi, lekin PVX stabilligini oshiradi: PVX ni destruksiyasini rang xosil bo'lishi susayadi va degedroxlorlangan polimerni oz bo'lsa xam rangsizlantiradi. **HCl**, organik kislota, spirtlar, fenollar, organik erituvchilar, eliminirlangan **HCl** larni xam katalitik ta'siridan bartaraf etiladi. Tikilish reaksiyalarini xam susaytiradi.

Malien ангидridini polimer zanjiriga kirishi shuni ko'rsatadiki, masalan IK spektirida ангидрид gruppani xarakterlovchi yo'llarni yutadi va malien ангидридleri modifitserlangan bo'ladi. SHunday qilib, kislotalar **HCl** ga o'xshab PVX destruksiyasini tezlashtirar ekan. Kilotaning kuchi ortishi bilan destruksiya tezligi xam ortar ekan.

III Amaliy qism

3.1 II – guruh metal birikmalari.

II grupp bosh gruppachasi elementlariga Be, Mg, Ca, Sr, Ba, Ra elementlari kiradi.

Berilliy 1798 yilda L. Boklen (Fransiya) kashf etgan bo'lib, Beril va zumraddan oksid holida ajratib olingan. Erkin holda F. Vyoler va A. Byussi ajratib olishgan (1828 y Germaniya).

Magniy 1808 yilda G. Devi (Angliya) tomonidan kashf etilgan. Magniy birikmalari qadimdan ma'lum.

Kaltsiy 1808 yilda G. Devi (Angliya) tomonidan kashf etilgan. Magniy birikmalari qadimdan ma'lum.

Strontsiy 1787 yilda A. Krauford va V. Kryukshenk (Angliya) lar tomonidan kashf etilgan bo'lib, Strontianit mineralidan oksidi holida ajratib olingan. G. Devi 1808 yilda metall holida olgan.

Bariy 1774 yilda K. Sheele va I. Gan (Shvetsiya) lar kashf etgan. Bariy birinchi oksid holida ajratib olingan. Metall holida esa 1808 yilda G. Devi tayyorlagan.

Radiy 1898 yilda P. Kyuri, M. Kyuri va J. Bemon (Fransiya) lar tomonidan aniqlangan. Radiy radiometrik metod bilan kashf qilingan va bariyning analogi sifatida kimyoviy o'xshashligi aniqlangan. Spektrini E. Demarse o'lchagan; radiy metali 1910 yilda M. Kyuri va A. Debern tomonidan olingan.

Davriy sistema II gruppasi ham metallardan tarkib topgan. Bosh gruppachadagi elementlar berilliy, magniy, kalsiy, strontsiy, bariy va radiydan elementlaridan iborat. Bu elementlarning atomlari sirtqi elektron qavatlarida ikkitadan s^1 elektron bo'ladi. Ular reaksiyalarda bu elektronlarini osonlik bilan berib, birikmalarda musbat ikki valentlik namoyon qiladi. Bosh gruppacha elementlari atomlarining tashqaridan ikkinchi qavallida sakkiztadan elektron $s^2 p^6$ ko'rinishda joylashgan bo'lsa, qo'shimcha gruppachali

elementlarining tashqaridan ikkinchi elektron qavatida o' n sakkizta elektron $s^2 p^6 d^{10}$ ko'rinishda joylashadi.

II gruppaning bosh gruppachasidagi metallar kuchli qaytamvchilardir. Berilliydan radiyga tomon atom radiusi kattalashgan sari qaytanivchilik xossalari ortib boradi. Ularning qaytaruvchilik xossalari ishqoriy metallarnikiga qaraganda kuchsizroq bo'ladi. Bu elementlar orasida ion radiusi eng kichik bo'lgan berilliy ko'proq kovalent bog'lanishli birikmalar, ion radiusi berilliyga nisbatan kattaroq bo'lgan magniy esa ham ion, ham kovalent bog'lanishli birikmalar, kalsiy, stronsiy, bariy va radiy elementlari esa faqat ion bog'lanishli birikmalar hosil qiladi. Shuning uchun ham berilliy va magniy gidroksidlari suvda yaxshi erimaydi. Kalsiy, stronsiy, bariy gidroksidlar yaxshi eriydi. Berilliydan radiyga tomon bu gruppachadagi elementlar gidroksidlarining suvda enivchanligi va asos xossaiari, shuningdek, kimyoviy faolligi ham ortib boradi. Masalan, berilliy va magniy suv bilan yuqori temperaturada reaksiyaga kirishadi. Kalsiy, stronsiy va bariy uy temperaturasida suvdan vodorodni siqib chiqaradi. Berilliy kislotalarda oson erib, vodorodni siqib chiqaradi va berilliy tuzlari hosil bo'ladi. Berilliy ishqorlarda ham erib, berillatlar hosil qiladi. Demak, berilliyda amfotcrlik xossalar bor. Magniy, stronsiy, kalsiy va bariy kislotalardan vodorodni siqib chiqarib, tuz hosil qiladi, ishqorlar bilan esa reaksiyaga kirishmaydi. Berilliydan radiyga tomon bu elementlarning xloridli, nitratli, sulfatli tuzlarining suvda eruvchanligi kamayib, nitritli va peroksidli birikmalarining barqarorligi ortib boradi. Magniy, kalsiy, stronsiy va bariyning sulfatli, ftorli, fosfatli, xromatli, oksalatli, karbonatli tuzlari suvda yomon eriydi (magniy sulfat bundan mustasno), Stronsiy sulfat va bariy sulfat kislotalarda ham erimaydi. Berilliyning tuzlari suvda gidrolizga uchrab, $Be(OH)_2$ hosil qiladi, buning sababi, berilliyda ion radiusining kichikligidadir. Ishqoriy-yer metallar oksidlanganda yoki yonganda, asosan, MO turidagi oksidlar, juda oz miqdorda MO_2 turidagi peroksidlar hosil bo'ladi. Ishqoriy-yer metallarning peroksidlari ishqoriy metallarning peroksidlariga qaraganda beqarordir. Berilliy oksid suvda va kislotada yaxshi erimaydi. Magniy oksid suvda oz, kislotada yaxshi eriydi. Kalsiy, stronsiy, bariy va radiy oksidlari suvda va xlorid, nitrat kislotalarda yaxshi eriydi.

Ishqoriy-yer metallarining vodprod bilan hosil qilgan birikmalari BeH_2 , MgH_2 , CaH_2 , SrH_2 , BaH_2 , turdagi ionli gidridlardir. Ionli gidridlar uy haroratida suv ta'sirida $\text{Me}(\text{OH})_2$ hosil qiladi, bunda vodorod ajralib chiqadi.

Berilliy gruppachasidagi elementlarning xossalari


№	Xossalari	Be	Mg	Ca	Sr	Ba	Ra
1	Tartib raqami	4	12	20	38	56	88
2	Valent elektronlar	$2s^2$	$3s^2$	$4s^2$	$5s^2$	$6s^2$	$7s^2$
3	Suyuqlanish temperaturasi, °C	280	1680	851	111	710	700
4	Qaynash temperaturasi, °C	2970	1107	1482	1382	1640	1538
5	Atom radiusi, Å	1,12	1,60	1,97	2,15	2,24	—
6	Atomning ionlanish energiyasi, eV	27,53	26,68	17,98	16,72	15,21	15,43
7	Nisbiy elektromarifiyligi	1,47	1,23	1,04	0,99	0,97	0,97
8	Birikmalarda oksidlanish darajasi	+2	+2	+2	+2	+2	+2
9	Solishtiima massasi	1,847	1,740	1,54	2,60	3,65	6,0
10	Yer qobig'idagi og'irlik foizi	$6,0 \cdot 10^{-4}$	2,35	3,5	$35 \cdot 10^{-3}$	$5 \cdot 10^{-2}$	$2 \cdot 10^{-10}$
II	Ionlanish potentsiali, eV	9,32	7,64	6,11	5,69	5,91	5,28

Kalsiyning tabiatda uchrashi. Kalsiy tabiatda eng ko'p tarqalgan elementlardan hisoblanadi. U faol metall bo'lganligi uchun faqat birikmalar ko'rinishida uchraydi. Uning tabiatda uchraydigan birikmalari karbonatlar, sulfatlar, silikatlar, boratlar, fosfatlar, galogenidlar, arsenitlar, molibdenatlar, volframatlar, titannidiar, vanadatlar va kalsiy karbonatning ohaktosh, marmar deyiladigan turlari bor. Uning gips ($\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$), angidrit (CaSO_4), apatit yoki kalsiy fosfat ($\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2$) deb




ataladigan birikmalari ham ma'lum. Kalsiy hayvon suyaklari tarkibida, tuproqda va tabiiy suvlarda ham bo'ladi. Kalsiy birikmalarining yirik konlari Rossiya, AQSH, Aljir, Ruminiya va boshqa davlatlarda bor. Respublikamizda ham kalsiy birikmalarining konlari uchraydi.

Fizik xossalari. Kalsiy kumush rang oq va ishqoriy metallarga qaraganda ancha qattiq, lekin yengil metallidir. Zichligi $1,55 \text{ g/sm}^3$ ga teng. Kalsiy 850°S da suyuqlanib, 1482°S da qaynaydi. Tabiiy kalsiy massa sonlari 40 (asosiy izotopi), 42, 43, 44, 46 va 48 bo'lgan oltita izotopi aralashmasidan iborat. Kalsiy havoda oson oksidlanadi, shuning uchun u kerosin qavati ostida saqlanadi.

Kalsiyning, olinishi xossalari va ishlatilishi. Metali holatdagi kalsiyni uning birikmalaridan elektroliz qilish yo'li bilan olinadi. Bunda tuzlar suvsiz holatda bo'lishi kerak. Agar suvli eritmalari elektroliz qilinadigan bo'lsa, kalsiyning gidroksidi hosil bo'ladi. Ba'zan kalsiy tuzlarini faol metallar bilan qaytarish natijasida ham kalsiy metali olinadi. Lekin bunda maxsus sharoit talab qilinadi. Bu jarayon quyidagi sxema bo'yicha olib boriladi:



Kalsiy aktiv metali hisoblanadi. Shuning uchun simob bilan qo'shilib, kalsiy amalgamasini hosil qiladi. Undan tashqari, kalsiy turli metallar bilan masalan, Zi, Mg, Pb, Cu, Be, Zn, Cd, Al, Ag, Hg tegishli qotishmalarni hosil qilishi mumkin. Kalsiy ham havoda kislorod, azot va suv bilan to'g'ridan to'g'ri kimyoviy reaksiyaga kirishadi. Shuning uchun u og'zi zich berkitiladigan idishlarda yoki kerosin ostida saqlanadi. Uning birikmalari turli sharoitda hosil qilinadi. Masalan, kalsiy kislorod bilan $350\text{--}450^\circ\text{C}$ da, vodorod bilan $150\text{--}170^\circ\text{C}$ da, galogenlar bilan 400°C da, oltingugurt va azot bilan $300\text{--}400^\circ\text{C}$ da birikadi:



Kalsiy qizdirilganida gaz holdagi ammiak bilan reaksiyaga kirishib, aralash amid hosil qiladi. Uni kalsiy diamid ($\text{Ca}(\text{NH}_2)_2$) va kalsiy (CaH_2) gidrid hosil bo'lish misolida kuzatish mumkin. Kalsiy suyultirilgan kislotalar va suv bilan kimyoviy reaksiyaga oson, konsentrlangan kislotalar bilan esa qiyin reaksiyaga kirishadi. Undan tashqari, kalsiy spirt bilan qo'sllilishi natijasida oq rangli, amorf holatdagi modda hosil qiladi, bu modda *alkogolyat* deb ataladi.

Kalsiyning kimyoviy faolligini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

a) oddiy sharoitda:

- havoda $\longrightarrow$ CaO , Ca_3N_2
- suv bilan $\longrightarrow$ $\text{Ca}(\text{OH})_2$
- spirt bilan $\longrightarrow$ $\text{Ca}(\text{OC}_2\text{H}_5)$
- ftor bilan $\longrightarrow$ CaF_2
- suyultirilgan kislotalar bilan $\longrightarrow$ (HCl , H_2SO_4 , HNO_3)
- tegishli tuzlar (CaCl_2 , CaSO_4 , $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$)
- hosil qiladi;

b) qizdirilganda:

- vodorod bilan $\longrightarrow$ CaH_2
- kislorod bilan $\longrightarrow$ CaO
- galogenlar bilan $\longrightarrow$ CaX_2 ($\text{X} = \text{Cl}^-$, Br^- , I^-)
- oltingugurt bilan $\longrightarrow$ CaS
- azot, fosfor, arsen, surma bilan $\longrightarrow$ Ca_2N_2 , Ca_3P_2 , Ca_3As_2 , Ca_3Sb_2
- uglerod bilan $\longrightarrow$ CaC_2





larni hosil qiladi.

Kalsiy metali sanoatda qator metallar (Na, K, Rb, Cs, Cr, Ti, Zr, Th) ni olishda qaytaruvchi sifatida ishlatiladi.


Kalsiy birikmalari. Kalsiyni havoda 300°C temperaturada qizdirish natijasida uning oksidini hosil qilish mumkin. U kuydirilgan yoki so'ndirilmagan ohak deyiladi. Sanoatda kalsiy oksid kalsiy karbonatni 850°C da qizdirish yo'li bilan olinadi. Kalsiy oksid suv bilan shiddatli reaksiyaga kirishib, kalsiy gidroksid hosil qiladi.

U so'ndirilgan ohak deb ataladi. Bu reaksiyalarni quyidagicha ifodalash mumkin:



So'ndirilgan ohak turli maqsadlarda ishlatiladi. Masalan, uyni suvash ishlarida, g'ishtlarni bir-biriga mahkamlashda sement o'rniga ishlatish mumkin. Ohakning qotishi quyidagicha boradi:


So'ndirilgan ohak qattiq modda bo'lib, suvda oz eriydi. 20°C da 1 litr suvda 1,6 g kalsiy gidroksid eriydi. So'ndirilgan ohakning suvdagi eritmasi ohakli suv deyilib, ishqoriy xossaga ega bo'ladi Ohakli suv orqali karbonat angidrid o'tkazish natijasida uning turli xil birikmalarini hosil qilish mumkin. Masalan, karbonat angidridning yetarli bo'lmagan miqdorini o'tkazish natijasida karbonat tuzi hosil bo'ladi. Agarda karbonat angidrid uzoq vaqt o'tkazilsa, dastlab hosil bo'lgan cho'kmaning erib ketishi kuzatiladi. Bunda kalsiy gidrokarbonat olinadi:




Ohaktosh CaCO_3 Kalsiyning bu birikmasi kalsiy karbonat deyiladi. Tabiatda kalsit (CaCO_3)₂ dolomit ($\text{CaCO}_3 \cdot \text{MgCO}_3$) minerallari ko'rinishida uchraydigan tog' jinsi hisoblanadi. Ohaktosh foydali qazilmalarqatoriga kiradi va O'zbekistonda katta konlari bor. Yuqorida aytib o'tilganidek, binokorlikda, kalsiy oksid hosil qilishda va karbonat angidrid olishda, metallurgiyada ishlatiladi. Uning yordami bilan yuqori temperaturada turli oksidlar SiO_2 , Al_2O_3 , Fe_2O_3 , MoO_3 , WO_3 ta'sirida birikmalarini hosil qilish mumkin:



Kalsiy karhid. Bu modda kalsiyni argon ishtirokida 900— 1050°C temperaturada koks yoki ko'mir bilan qaytarish natijasida hosit qilinadi:




Kalsiy karbid suv bilan shiddatli ravishda reaksiyaga kirishib, asetilen hosil qiladi:




Bu modda sanoat ahamiyatiga ega bo'lib, kimyo sanoatining ko'pgina tarmoqlarida boshlang'ich xomashyo hisoblanadi.

Xlorli ohak. Bu modda so'ndirilgan ohakka xlor yuborish asosida hosil qilinadi. Tarkibida xlor borligi uchun ohorlash xossasiga ega. Uning hosil bo'lish reaksiyasi:



Xlorli ohak to'qimachilik sanoatida, qog'oz sanoatida va dezinfeksiya ishlarida keng qo'llaniladi.

Kalsiy sulfat. Bu tuz turli ko'rinishda uchraydi. Masalan, ikki molekula suvli holati ($\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$) gips, suvsiz holati esa angidrit (CaSO_4) deyiladi. Ba'zan bu tuz natriy sulfat tuzi bilan aralashgan holda uchraydi va glauber tuzi ($\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot \text{CaSO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$) deyiladi. Undan tashqari, turli minerallar bilan birgalikda ham uchraydi. Qizdirish natijasida gips o'z tarkibidagi suvni yo'qotishi va yuqori temperaturada hatto parchalanib ketishi mumkin.




Gips qurilish materiali sifatida, tibbiyotda va sanoatning turli sohalarida keng qo'llaniladi. Uning yordamida metallurgiyada turli detallarni quyishda foydalaniladigan qoliplar tayyorlanadi.


Suvning qattiqligi va uni yo'qotish usullari

Suvning tarkibida qator tuzlar bo'lishi mumkin. Lekin bu tuzlar suvning tabiatiga unchalik ta'sir ko'rsatmaydi. Kalsiy va magniyning sulfatli va karbonatli tuzlari suvda ishtirok etsa, ular suvning xususiyatiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun tarkibida kalsiy va magniy tuzlari bor suvlar qattiq suv deb yuritiladi.

Suvning qattiqligi tarkibidagi bu tuzlarning miqdoriga qarab doimiy, muvaqqat va umumiy qattiqlikka bo'linadi. Suvning muvaqqat qattiqligi deganda tarkibida kalsiy va magniyning bikarbonatlari bor suv tushuniladi, Sunday suv ohistalik bilan qizdirilganda, bikarbonatlar karbonatlarga aylanishi natijasida suvning tagiga cho'kadi va qattiqligi yo'qoladi:



Keyingi vaqtlarda bu maqsadlar uchun tarkibida aminogruppa bor polimeriardan foydalanilmoqda. Aminogruppalar suvli eritmada kislotalami bog'lash uchun xizmat qiladi. Bunda tegishli tuzlar hosil qilish natijasida suvdagi kislotalar yo'qotiladi. Bu vaqtda quyidagi reaksiya ketishi mumkin:



Reaksiyada $\text{Z} \cdot \text{NH}_2$ bilan aminobirikma ifodalangan.

Suvning qattiqligini ifodalashda quyidagi misoldan foydalansak bo'ladi.

Sodaning molekular massasi 106 ga teng. Uning milligramm-ekvivalentini topamiz. Buning uchun molekular massasini uning asoslilikiga qarab ikkiga bo'lamiz, bunda $106 : 2 = 53$ mg kelib chiqadi. 100 l suvdagi kalsiy ionlarini cho'ktirish uchun 21,2 g, ya'ni 21200 mg soda zarur bo'ladi. Bu qiymat $21200 : 53 = 400$ mg-ekv.ni ifodalaydi va 100 litr suvda shu qiymatga teng bo'lgan kalsiy ionlari miqdorini ko'rsatadi. Bunday kalsiy ionlarining miqdori $400 : 100 = 4$ mg-ekv.ga teng.

3.2 Tajriba usullari

PVX ni termostatikligini aniqlashga qullanilayotgan stabilizatorlarning effektivligini oshirishdan tashqari hosil bulayotgan polimer kompozitsiyasining termostabilligini ham ta'minlaydi. PVXning termostabilligini induksion davr orqali aniqlanadi.

Induksion davr bu – sistemani qizdirish boshlangan davrdan to qizdirilib chiqish boshlanguncha bo'lgan bo'lgan vaqtga aytiladi. Bu vaqt mobaynida sistemaga

qo'yilgan stabilizator destruksiya natijasida ajralib chiqayotgan HCl ni ushlab qolishga tula sarflanadi.

PVX ning termostabilligini aniqlash uchun bir necha usullardan foydalanish mumkin.

1. "Kango-qizili" indikator yordamida induksion davrni aniqlash mumkin.

2. Termik va termo oksidlovchi degidroxloraminni aniqlash

Bunda azot kislorod oqimida yoki vaakumda ajralib chiqayotgan HCl miqdorini aniqlash ko'zda tutiladi.

1.1 PVX ni vinilxlorid sopolimeri va ular asosida tutilgan polimerlarni "kango qizili" indikator yordamida termostabilligini aniqlash mumkin. Bu 2-usulning mohiyatini berilgan na'muna termostabilligida erkin holdagi vodorod ajralib chiqquniga qadar bo'lgan vaqtni minutlar hisobida aniqlash lozim bo'ladi.

Bunda "kango qizili" indikatorida rang o'zgarishi ro'y beradi.

1.2 Apparatura, idish va reaktivlar: Termostatik isitish hammomi termoregulyatori bilan. Bunda temperatura intervali 110-220°C gacha bo'ladi. Termostat probirkalar solish uchun mo'ljallangan, teshikchalardan iborat qopqoqli aralashtirgich va termometrdan iborat bo'lishi kerak. Probirkalar diametri 16,1 mm PVX tipida bo'ladi. Probirkalar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. "kongo qizili" indikator GOST-5552-50 ga javob berishi kerak.

Tajriba o'tkazish uchun tayyorgarlik: Tajriba o'tkazish uchun avval barcha zarur ishlarni bajarib ko'p tajriba o'tkaziladi. Buning uchun olingan probirkalarimiz toza yuvilgan va quritilgan bo'lishi kerak.

Birinchi na'munalar poroshok yoki granulalar holatida bo'lsa qo'shimcha o'zgarishlarsiz ishltiladi. Agar tajribaga kerakli bo'lgan materiallar plasztizol holda bo'lsa, u holda material 5 mm hamda kvadrat shaklida qirqiladi.


3.3 Tajribaning borishi:

Probirkani 50 mm balandlikka qadar berilgan material bilan to'ldiriladi. Probirkaning yuqori qismiga yupishib qolgan zarrachalarni tozalab tashlanadi va probirkani og'zi shisha nayli probka bilan berkitiladi. SHisha nayning uzunligi 33 mm, kengligi 10 mm bo'lgan "kango qizili" indikator qog'ozi o'rnatiladi. Indikator qog'ozning pastki qismida na'munadan 2-5 mm balandlikda bo'lishi kerak. Tayyor bo'lgan probirkani moyli va giletsirinli hammomga solinadi.

Hammomning harorati talablar asosida tanlanadi. Sungra boshlang'ich vaqtdan indikator qog'ozni rangi o'zgarguncha bo'lgan vaqt o'lchanadi. PVX ning termostabilligi deb na'munani qizdirish boshlangan vaqtdan indikator qog'ozning rangi o'zgargungacha bo'lgan vaqtga aytiladi. Natija uchun aniqlashlarning o'rtacha vaqti olinadi. Bunda aniqlashlarning farqi 3 minutdan oshmasligi kerak. Ba'zi stabilizatorlar ishlatilganda indikatorning rangi keskin o'zgaradi. Lekin uning o'zgarishi aniq bo'lmaydi. Bunday vaqtlarda indikatorning rangi o'zgarishi boshlangan vaqtni olinadi.

Quyidagi rasmda PVX ni termostabilligini aniqlash uchun ishlangan asbob tasvirlangan misol: $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$ bilan stabillangan PVX C-70 ni termostabilligini aniqlashni ko'raylik. Buning uchun bitta na'muna tayyorlanadi. 1 gr toza PVX ikkidan oltigacha na'munalar esa PVX $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$ aralashmasidan quyidagi hisobga olingan bo'ladi. $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$ PVX ga nisbatan 0,5:1:2:0,3 yoki 32 PVX ga 15:30, 60, 90, 120 mg $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$ qo'shilgan bo'ladi. Olingan chinni kosachada 30 minut davomida aralashtiriladi. Keyin ikkita probirkaga bir gramm PVX va katalizatorni kerakli miqdorini hisobga olgan holda tortib olib solinadi. YUqorida ko'rsatilganidek qilib termostabilligi aniqlanadi.

4.1 rasm



Kalsiy tuzlarini PVX barqarorligiga ta`siri

1. $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$
2. CaSO_4
3. CaCO_3
4. CaCl_2

3.4 Olingan natijalar va ularning muhokamasi.

Biz avval korsatib o'tkanimizdek polivinilxloridning parchalanishida uchta omil katta ro'l o'ynaydi.

1. Makromalekula tarkibidagi HCl ning ajralib chiqishi
2. Bogliqli qo'shbog'lar ($C=C$) ning hosil bo'lishi
3. Karbonil allil gruppasi hosil bo'lishi

PVX ni asosiy parchalanishini sababi uning makromalekulasida karbonil allil gruppasini borligidir. Karbonil allil gruppasi polimerni sintez qilish paytidayoq hosil bo'lishi mumkin. Uzun polimerni sintez qilish paytidayoq destruksiya uchramasligi kerak. SHu sababdan ham PVX ni parchalanishdan saqlash uchun uni stabilligini oshirish uning fizik kimyoviy va biologic ta'sirlarga chidamliligini oshiradigan kimyoviy moddalar stabilizatorlar deyiladi. Makromalekulaning barqarorligini oshirish uchun qo'llanilayotgan stabilizatorlar quyidagi talablarga javob berishi kerak.

1. HCl ajralib chiqishini to'xtatishi
2. Makromalekulani tikishi va zanjir uzulishini to'xtatishi
3. Karbonil allil gruppasini yo'qotish
4. Kimyoviy agentlar (O_2 , HCl, Me va boshqalar) ta'sirini yo'qotishi va kamaytirishi kerak.

Bizga ma'lumki hozirgi paytda sanoatda metall tuzlari stabilizator HCl akseptori bo'lib, ulardan ishlab chiqarishda keng qo'llanilmoqda. Lekin hozirgi kungacha D.I.Mendeleevning davriy sistemasidagi hamma metallar tuzlarining PVX barqarorligiga qanday ta'sir ko'rsatishi o'rganilgan. Mana shu muammoni qisman bo'lsada hal etish uchun 2 grupp va 8 grupp elementlari misol uchun Co tuzlarining PVX stabilligini oshirishini o'rganishning bir necha usullari bor. Ular quyidagilar:

1. "Kango-qizili" indikator yordamida induksion davrni aniqlash mumkin.
2. Termik va termo oksidlovchi degidroxloraminni aniqlash


YUqorida ko`rsatilgan usullardan “Kango-qizili” indikatori yordamida induksion davrni aniqlash usuli bo`yicha ish olib bordik. Bunda biz metodichkada berilgan berilgan tartibda ish yuritdik va Ca va Mg tuzlari dan foydalanildi. Bular quyidagi tuzlardir $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$, CaSO_4 , CaCO_3 , CaCl_2 hamda $\text{Mg}(\text{NO}_3)_2$, MgSO_4 , MgCO_3 , MgCl_2 . Bu tuzlardan 20 , 30 , 60, 90, 120, mg dan tortib oldik va 3 gr dan PVX dan tortib olib ularni yahshilab aralashtirdik. Sung qo`shilgan tuzlarni PVX dan HCl ni ajralib chiqishiga qanday ta`sir kursatishini urganib chiqdik. Olinan natijalar tablitsa va rasmlarda ko`rsatilgan.

4.1 jadval

PVX bilan stabilizator aralashmasi		PVX ning termostabilligi		
Stabilizator miqdor		175 ⁰ C dan kamayishi	175 ⁰ C da HCl ajralishi	
PVX ga isbatan mg	PVX ga nisbatan %	boshlanishi	vaqti	Polimer rangi
0	0	10	5	Och sariq
15	0,5	15	7	Och sariq
30	1	24	8	Och sariq
60	2	41	18	sariq
90	3	41	19	sariq
120	4	54	25	sariq

PVX ning stabilizator aralashmasidan 175 0 C dan yuqori haroratda HCl ajralib chiqish vaqti va polimer rangining o`zgarishi

4.2 rasm



Magniy tuzlarini PVX barqarorligiga ta`siri

5. $\text{Mg}(\text{NO}_3)_2$
6. MgSO_4
7. MgCO_3
8. MgCl_2

4.1 rasm va jadvaldan ko`rinib turibdiki PVX dan HCl ajralib chiqish boshlangan vaqtini  $\text{CaCl}_2$  tezlashtirib yuborayapdi. Sababi hosil bo`layotgan HCl ni tutib ola olmasligidan bo`lsa kerak.

CaSO_4 tuzi esa PVX ga asincha ta`sir ko`rsatayapdi. PVX dan HCl ajralib chiqish vaqtini o`zgartiryapdi ya`ni CaSO_4 ishtirokida 6 minutdan 18 minutga qadaro`zgartiryapdi.  $\text{CaCO}_3$  va  $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$  tuzlari ham plivinilxlorid stabiligiga ijobiy ta`sir ko`rsatayapdi.

CaSO_4 ishtirokida 6 minutdan 12 minutgacha, $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$ ishtirokida 6 minutdan 19 minutgacha oshirayapdi. Bunday natijalarning olinishiga sabab bu tuzlar PVX dan ajralib chiqayotgan HCl ni tutib qolib uning PVX destruksiyasiga uchrashi tasirini yo`qotishda muhim ro`l o`ynayotganidan dalolat beradi.

Bu tuzlar ichida $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$ va CaSO_4 tuzi PVX dan HCl ni ajraib chiqish vaqtini ko`proq oshirayapdi. Buning sababi bu tuzlar PVX dan ajralib chiqayotgan HCl bilan tasirlashganda kislota hosil qiladi. Aslini olganda kislotalar PVX destruksiyasiga salbiy ta`sir ko`rsatar edi. Lekin  $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$  ishtirokida o`tkazilgan tajribadan HNO_3 , CaCO_3 ishtirokida o`tkazilgan tajriba natijasida  $\text{H}_2\text{CO}_3$  hosilbo`ladi. Bu kislotalar yuqori haroratda beqaror kislota bo`lganligi sababli gaz hamda suvga parchalanib ketadi. Suv hamda gazlarning hosil bo`lishi PVX destruksiyasiga ta`sir qilmaganligi sababli induksion davr yuqoriroq bo`ladi.

Ca va Mg tuzlarini PVX barqarorligiga ta'siri

№	PVX	stabilizator	Tuzlar ishtirokida HCl ni chiqish vaqti						
	mg	mg	CaCl ₂	CaCO ₃	Ca(NO ₃) ₂	CaSO ₄	MgCl ₂	MgCO ₃	Mg(NO ₃) ₂
1	3	0							
2	3	15	3	7	12	6	5	9	12
3	3	30	4	8	14	8	4	9	16
4	3	60	3	9	15	11	4	10	22
5	3	90	4	9	18	15	3	11	24
6	3	120	4	12	18	18	2	14	27

4.2 rasm va 4.2 jadvalda Magniy tuzlarini PVX estruksiyasiga ta'siri o'rganilgan. Tajriba natijaaridan yaqqol ko'rinib turibdiki $MgCl_2$ PVX dan HCl ni ajralib chiqishi vaqtini tezlatib yuborayapdi. Buning asosiy sababi vodorod xlordga akseptor ro'lini o'ynash kerak bo'lgan $MgCl_2$ xlor atomlari bilan to'yingan shuning uchun HCl ni tutib qola olmaydi.

Bundan tashqari magining boshqa tuzari jumladan $Mg(NO_3)_2$, $MgSO_4$ va $MgCO_3$ tuzlari PVX stabilligi davriga yahshi ta'sir ko'rsatayabdi.

Bu tuzlar PVX dan HCl ajralib chiqishi vaqtini uzaytirypdi. $MgSO_4$ 6 minutdan 6 minutga, $MgCO_3$ minutdan 4 minutga, $Mg(NO_3)_2$ 6 minutdan 27 minutgacha o'zgartiryapdi, bularning sababi PVX dan chiqayotgan HCl ni tutb qolishidir.

Tajriba natijalaridan kelib chiqadigan bo'lsak magniy tuzlari deyarli PVX stabilligini oshirib yuborayotganini guvohi b'lamiz.

O'tkazilgan tajribalar va ulardan olingan natijalarga asoslanib quyidagi hulosalarni chiqarish mumkin

X U L O S A

1. Davriy sistemaning ikkinchi guruh metallaridan kalsiy va magniy tuzlarini polivinilxlorid (PVX) barqarorligiga qanday ta'sir etishini o'rganish imkoniyatini beruvchi xulosa yaratildi.
2. YUqoridagi qurilmadan foydalanib loybaratoriya sharoitida kalsiy va magnifying bir qator tuzlarini PVX barqarorligiga ta'siri o'rganib chiqildi.
3. Kalsiy va magniyning sulfat va nitratlari PVX barqarorligini sezilarli darajada oshirishi aniqlandi.
4. YUqoridagi metallarni karbonatlari PVX barqarorligini oshirishga ijobiy ta'sir etishi aniqlandi.
5. Kalsiy va magniyning xloridlari PVX barqarorligiga salbiy ta'sir etishi aniqlandi.
6. Polimerning barqarorligini oshirish maqsadida qo'shiladigan stabilizatorlar polimerga nisbatan antimol miqdori 1:1500 ekanligi belgilandi.

V. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.A. Karimov O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yoli. T. 1992
2. I.A. Karimov O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T. 1995
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T. 2008
4. A. Karimov. “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.” T. 2000.
5. SHur A. M. “Viskomolekulyarnie soedenenie” Uchebnik. M. Vysshaya shkola 1981
6. Tager A. A. “Fizika-ximiya polimerov” Uchebnaya posobiya M. Ximiya 1978
7. Strpixeev A. A. Derevitsnaya V. A. “Osnovnii ximii viskomolekulyarnie soedenenie” Uchebnaya posobiya M. Ximiya 1976
8. Musayev U. N. Badalboyev T. M. Qurbonov Sh. A. “Polimerlar kimyosidan praktikum” Toshkent Universiteti 2001
9. Andrianov K. A. Xanashlili L. M. “Texnologiya elementorganicheskix monomerov i polimerov” M. Ximiya 1983
10. Asqarov M. A. Oyxo`jayev B. I. Avloviddinov A. B. “Polimerlar kimyosi” o`qituvchi 1981
11. Askadskiy A. A. “Deformatsiya polimerov” M. Ximiya 1973
12. Askadskiy A. A. Matveev YU. I. “Ximicheskii stroenie i fizicheskii svoystva polimerov” M. Ximiya 1983
13. Baramboym A. K. “Mexanoxmiya viskomolekulyarnie soedenenie ” M. Ximiya 1979
14. Bartenev G. M. Zelenev YU. V. “Fizika i mexanika polimerov” M. Vysshaya shkola 1983
15. Berlan A. A. Volfson S. A. Enikoloniyan N. S. “Kinetika polimerizatsionnykh protsesov” M. Ximiya 1978
16. Van Kreveleen D. V. “Svoystva ximicheskii stroenie polimerov” M. Ximiya 1976
17. Vinogradov G. V. Malkin A. YA. “Realogiya polimerov” M. Ximiya 1977
18. Godovskiy YU. K. “Teplofizika polimerov” M. Ximiya 1982

Internet saytlari:

1. <http://www.chemport.ru> - kimyo fani bo`yicha nashr etiladigan barcha jurnallar ro`yhati (tashkil etilgandan buyon).
2. <http://www.chemdaks.org> [books consultant.ru](http://books.consultant.ru) – kimyoviy adabiyotlar haqida malumot.
3. <http://www.chemist.ru> [bsu by/abc/current a htm](http://bsu.by/abc/current.htm) – to`la matnli tekin ilmiy jurnallar
4. [http://txt a library.ru](http://txt.a-library.ru) – ilmiy kitobxona.
5. [http://txt URSS.ru](http://txt.urss.ru) – ilmiy kitoblarning internet magazine.
6. <http://www.Sabras.nsc.ru> – konferensiyalar haqida malumot.

M U N D A R I J A

I. Kirish

II. Adabiyotlar taxlili

- II.1. Polimerlarning barqarorligi sabablari
- II.2 Polimerning parchalanishga kislotalar ta'siri.
- II.3. Polimer parchalanishiga metall tutgan birikmalar ta'siri.
- II.4. Oddiy stabilizatorlar.
- II.5. Polimerlar destruksiya va uning turlari:
- II.6. Kimyoviy destruksiya:
- II.7. Oksidlanish destruksiya:
- II.8. Fizik destruksiya:
- II.9. Polimerlar barqarorligi:
- II.10. Polimerlar barqarorligining sabablari:
- II.11. Polimerlarning HCl ishtirokida parchalanishi:
- II.12. Polimerlarning parchalanishiga kislotalarning ta'siri:

III. Asosiy qism

- 3.1 II – guruh metal birikmalari.
- 3.2 Tajriba usullari
- 3.3 Tajribaning borishi:
- 3.4 Olingan natijalar va ularning muhokamasi.

IV. Xulosa

V. Foydalanilgan adabiyotlar